



ERTAKLARNING KOGNITIV-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Z. R. Eraliyeva

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ertaklarning kognitiv dasturi insonlarning fikrlash doirasiga qarab turib belgilanishi, bolalar olamining lisoniy manzarasi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, konseptual sfera, konsetuallashtirish.

Bolalarga xos og'zaki va yozma matnlarni kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etish, bolalar tabiati va dunyoqarashiga moslangan matnlarning chuqur semantikasi hamda matndagi lingvokognitiv ahamiyatini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Zero, kognitiv yondashuv quyidagi imkoniyatlarni taqdim qiladi:

a) bolalarga xos matnlarni chuqurroq tushunish;

b) ularning konseptuallashtirish jarayoni hamda ular orqali namoyish etilgan kognitiv axborotni ko'rib chiqish. Bolalarga xos matnlar bolalarning lisoniy olam manzarasida konseptual sferani hosil qiluvchi konseptlar haqidagi axborotlarni, bilimlarni o'rganishni nazarda tutadi. Agar til ongimizdagi fikrning materiali, voqelanishi sifatida xizmat qilsa, bolalarga xos bo'lgan matnlar bolalarning fikrlash qobiliyatini voqelantirgani bilan ahamiyatlidir. Bolalarning olam haqidagi tasavvurini oshirishga, tafakkurlashga, bilish jarayoniga yordam beradigan matnlardan biri, bu eptak matni hisoblanadi. Eptaklarning ma'juziy, sehrli va hayvonlar haqidagi eptaklarga ajratilishini o'zi ham kognitiv axborot qay tarzda bolaga berilishi, ma'lumot uzatish qanday rejalashtirilganidan dalolat beradi. Ayniqsa, adabiy eptaklarda muayyan kognitiv dastur mavjud bo'lib, ertakdan olinadigan xulosa, g'oya makropropozitsiyani hosil qiladi. Ta'kidlash joizki, eptaklarning kognitiv dasturi insonlarning fikrlash doirasiga qarab turib belgilanadi. O'zbek xalqida "Boshiga ursang birovga, yelkasiga qoqsang o'zingga" degan matal bor. Bu kontekst boshning eng ardoqli, e'zozli tana a'zosi ekanidan dalolat beradi, qadim-qadimdan odam ruhining makoni boshida degan naql bor. Bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar, boshi toshdan bo'lsin kabi maqol va iboralarda ham boshning muqaddasligiga ishora bor.

M. I. Gadoevaning somatizm muammolari masalalariga bag'ishlangan dissertatsiyasida bosh bilan bog'liq somatizmlar izohlanadi va G'arbiy Yevropada inson birgina tanasida uchta ruhi borligiga xalqning qadimdan ishonishini misollarda izohlaydi va Oloriy nomli ruh insonning boshida joylashgan deb qaralishi va go'yo shu ruhning sharofati bilan inson balo-qazolardan saqlanishi xalq xotirasida qolganini ta'kidlaydi.

Ko'rinadiki, boshning muqaddasligi boshqa xalqlar singari o'zbek xalq eptaklarida ham ifodalanadi, shu bilan birga bosh va sochning o'zaro bir-biriga



bog'liq, deb tushunilish natijasida "Bulbuligo'yo", "Ota vasiyati", "Sirli gilamcha" kabi eptalarda xalqning inson va tana a'zolari haqidagi kognitiv axborot matn syujetiga singdiriladi. Shu bois, o'zbek xalq ertaklaridan soch bilan bog'liq quyidagi kognitiv ma'lumotlarni olish mumkin:

1. Sochning tabiiy go'zalligi: qirq kokilli pari qizlar orqali.
2. Sochning notabiiyligi: zar kokilli bola obrazida.
3. Sochning magik xususiyati: "Yoriltosh" ertagida.
4. Qizning qalin sochlaridan arqon sifatida foydalanish.

5. Soch tolasini kuydirish vositasida: butunning bo'lakka aloqadorligi, "Bahodir va ajdarho" ertagida sher, shoqol, bo'ri bolaga bittadan tukini berib, yordamga hozir bo'lishi va h.k. kabi tushunchalarni xalq dunyoqarashida shakllangan o'ziga xos bilimlar, kognitiv axborotlarning uzatishi, yetkazish vositasidir.

Inglizlarning "Uch cho'chqacha" ertagida har bir jonzot o'ziga uy quradi, birinchisi paxoldan, ikkinchisi tikandan, uchinchisi eca g'ishtdan. Bu eptak ingliz kognitsiyasini: har inson alohida shaxs, uning daxlsiz makoni bo'lishi kerak, degan kognitiv ma'lumotidan kelib chiqqan holda yaratilgan. Bizda esa uch bahodir tunni uchga bo'lib, bir-birini qo'riqlaydi, bir-biriga yordam beradi, bir uyda, bir ko'rpada katta bo'lgan, deb ta'riflanadi. O'zbek xalqida oilaning muqaddasligi, aka-ukalarning o'zaro hamjihatligi kabi qadriyatlar bolalar ongiga ertaklar yordamida cingdiriladi. Eptaklarning makropropozitsiyasida kognitiv dasturlash natijasida quyidagi vazifalar namoyon bo'ladi:

1. Ijtimoiylashuv vazifasi. Bolalar eptaklarni tinglagani sayin jamiyatdagi munosabatlarni insonlar o'rtasidagi ahillik, ziddiyat, raqobat, yaxshi va yomonning kurashi, yomonlikning doimo yengilishi, do'stlik, biri-biriga yordam berish, o'zaro hamfikrlik, do'stona, birodarlik aloqalari haqida da'latlabki ma'lumotlarga ega bo'ladi. "Zumrad va Qimmat" ertagida mehnatkash Zumradning taqdirlanishi, dangasa Qimmat va uning onasining jazolanishi ijtimoiy hayot qonuniyatlariga mos keladi.

2. Qadriyatlar(aksiologik) vazifasi. Bunda ertak qahramonlarining xulq atvoridagi xatti-harakatlar, odob-axloqi eptakdagi voqealar rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Hatto, yovuz devlarning ham: "Gar saloming bo'lmaganda ikki yamlab bir yutardim". "Uch og'ayni botirlar" ertagida otaning duosi, farzandlarning oqil, mehnatkash, ilmi bo'lishi, mehmon odobiga rioya etishi asosida ertak syujeti voqelanadi.



3. Evrilish (kompensatsiya) vazifasi. Ertaklarda hayoliy uydirmalar, barcha istak-xohishlar amalga oshishi mumkin. No'xatning bolaga aylanishi, yalmog'iz xurluqoga, yigit cholga aylanib qolishi ertaklardagi evrilish vazifasi bilan belgilanadi.

4. Ekzistensial (hissiy jozibadorlik) vazifasi. Ayni shu vazifasi orqali ertaklar bolalar uchun qiziqarli, ertakning 3-shaxsda bolalarga daxldor bo'lgan xususiyatlarni yoritilishi, yaxshi bilan yomonni farqlashda begona konseptida foydalanib, bolalarga aytib berilishi uni ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ertakdagi begona konsepti: podsho, vazir, botir, malika, sohibjamol, yalmog'iz, dev, pari tarzida ifodalanadi.

Eptaklarda "Sehrlil narsa-buyumlar" konsepti mavjud bo'lib, ular insonlarning fetishistik, totemistik qarashlari spaydo bo'lgan hamda quyidagi kognitiv xususiyatlarni ifodalagan: inson taqdiri yoki tabiat olami bilan bog'liq biror-bir sirni ochish, axborot berish (sehrlil tosh, sehrlil olma), yomonlik va yovuzlikni jazolash (taroq, sehrlil oyna, ur to'qmoq), farovon hayot kechirish umidi (ochil dacturxon, uchar gilam, ochil supra).

Ko'rinadiki, bolalarga xos og'zaki matn tarkibiga kiruvchi ertaklarda mifologiya, etnik qadriyatlar hamda bola uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlar uchinchi shaxsda ifodalangani bois bola tomonidan tez idrok qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yuldasheva D.M. O'zbek bolalariga xos og'zaki va yozma matnlarning antropotsentrik tadqiqi. Monografiya. - Farg'ona: Classic, 2021. – 130 b.
2. Rasuljonovna, E. Z. . (2023). Bolalar Kitobxonligi Va Mediya Muhitida Bolalik Konseptining Ifodalanishi. Miasto Przyszłości, 40, 329–334. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1820>
3. Yuldasheva Dilafuz, Jabborova Marifatxon, Eraliyeva Zamira Rasuljonovna, & Maziyayeva Muqaddasxon (2022). MAKTABGACHA TA'LIMGA YANGICHA YONDASHUV. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2 (Special Issue 3), 121-125.
4. JS Ikromjonovna. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING O'YIN KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 586-588
5. Eraliyeva, Z. (2023). MTT NING MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI MANTIQUIY FIKRLASH VA BAHS MUNOZARALI VAZIYATLARDA YECHIM TOPISHGA VA BADIY NUTQQA O'RGATISH. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(18). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/19>
6. Yuldasheva D.M. Bolalarga xos og'zaki va yozma matnlarning yaratilishida lingvistik geshtalt xususida. FarDU. Ilmiy xabarlar –Nauchniy vestnik. FerGU, 2020. – №3. – B.157-161



7. Eraliyeva Zamira. (2023). BOLALAR KITOBXONLIGI VA MEDIYA MUHITIDA BOLALIK KONSEPTINING IFODALANISHI. Innovations in Technology and Science Education, 2(15), 287–295. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/1967>
8. Eraliyeva Zamira Rasuljonovna, & Djo‘rayeva Dildoraxon Rahmonaliyevna. (2023). BOLALAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA AYRIM DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 184–186. <https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.866>
9. Юлдашева, Д. М., & Эралиева, З. Р. (2023). “БОЛАЛИК” КОНЦЕПТИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ. Research Focus, 2(2), 226-228.
10. Xurshidaxon, A., & Ikromjonovna, J. S. (2023). МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА БОЛАЛАРНИ АТРОФ-МУХИТНИ АСРАБ-АВАЙЛАШ ВА Г’АМХО’РЛИК КО’РСАТИШГА О’РГАТИШ. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 551-553.
11. Ikromjonovna, J. S., & Axadjon o‘g‘li, A. A. (2023). O ‘ZBEKISTONDA PISA TESTI NATIJALARI VA BOSHLANG ‘ICH TA’LIM O ‘QUVCHILARINI BU TESTGA TAYYORLASH ISTIQBOLLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 159-162.
12. O Maxliyoxon, J Shaxnozaxon. (2024). DRAMA AND ARTISTIC READING IN PRIMARY GRADES: Study guide. ISBN-13 : 979-8324468415 1, 142